

PROKURATURA ORGANLARINING DAVLAT MEXANIZMIDA TUTGAN O'RNI

Muxammadiyev Jamshid Ilhom o'g'li

*Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat boshqaruv huquqi yo'nalishi magistranti
thejamshid0205@gmail.com*

Annotatsiya: *Prokuratura organlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini belgilovchi prinsiplar ularning butun tizimi va vakolatlarini samarali amalga oshirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada prokuratura faoliyatini tartibga soluvchi asosiy prinsiplar, xususan birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik, oshkoralik prinsiplari chuqur tahlil qilingan. Har bir prinsipning mazmun-mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardagi ifodalanish shakllari tahliliy yondashuv asosida yoritilgan. Shu bilan birga, maqolada prinsiplar tizimining huquqiy mexanizmlardagi aks etishi va uni takomillashtirish istiqbollari yuzasidan tegishli ilmiy xulosalar va takliflar bildirilgan, shuningdek prokuratura organlarining davlat mexanizmidagi o'rni haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Prokuratura, davlat mexanizmi, qonuniylik nazorati, mustaqillik, hokimiyat bo'linishi, jinoyat ta'qibi, umumiy nazorat, konstitutsiyaviy maqom, huquqiy davlat*

Аннотация: *Конституционно-правовые принципы, определяющие деятельность органов прокуратуры, имеют важное теоретическое и практическое значение для обеспечения эффективного функционирования всей системы и реализации их полномочий. В данной статье проведён углублённый анализ основных принципов, регулирующих деятельность прокуратуры, в частности принципов единства, централизации, законности, независимости и гласности. Содержание и сущность каждого принципа, их взаимосвязь, а также формы их закрепления в действующих нормативно-правовых актах рассмотрены с аналитической точки зрения.*

Вместе с тем в статье исследуется отражение системы принципов в правовых механизмах, сформулированы соответствующие научные выводы и предложения по их совершенствованию. Также освещается роль и место органов прокуратуры в государственном механизме.

Ключевые слова: *прокуратура, государственный механизм, надзор за законностью, независимость, разделение властей, уголовное преследование, общий надзор, конституционный статус, правовое государство*

Annotation *The constitutional and legal principles governing the activities of the прокуратура play a significant theoretical and practical role in ensuring the effective functioning of its entire system and the proper exercise of its powers. This article provides an in-depth analysis of the key principles regulating prosecutorial activity, including the principles of unity, centralization, legality, independence, and transparency. The essence and content of*

each principle, their interrelationship, and their expression in current normative legal acts are examined through an analytical approach.

At the same time, the article explores how the system of principles is reflected in legal mechanisms and offers relevant scientific conclusions and proposals for their further improvement. It also discusses the role and place of prosecutorial bodies within the state mechanism.

Keywords: *prosecutor's office, state mechanism, oversight of legality, independence, separation of powers, criminal prosecution, general supervision, constitutional status, rule of law*

Huquqiy tartibot har qanday davlatda iqtisodiy farovonlik va siyosiy- huquqiy barqarorlikka erishishdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Aynan qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash orqali davlat o'z funksiyalarini samarali bajarib, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlaydi hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini kafolatlaydi. Tabiiyki, jamiyatda huquq-tartibotning o'rnatilishi va amal qilishida prokuratura organlarining faoliyati dolzarb ahamiyat kasb etadi. Prokurorlik nazorati hujjatlarining qo'llanish ko'lamini yildan-yilga ortib borayotganligi jamiyatda qonuniylikning qoniqarsiz holati bilan birga, ayni vaqtda prokuror nazoratiga bo'lgan ehtiyojning haqiqiy zaruratini ko'rsatmoqda. Har bir jamiyat o'z milliy davlatchiligini barpo etar ekan, eng avvalo, bugungi kun hamda kelajagi uchun asosiy strategik ustuvor maqsadlarni belgilab oladi va uning huquqiy asosini yaratadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayangan holda, demokratiya va ijtimoiy adolatga asoslangan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni bosh maqsad qilib oldi. Ushbu maqsad 2023 yildagi Asosiy qonun – Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topdi. Chunonchi, Konstitutsiyaga muvofiq, xalq hokimiyatchiligi e'tirof etildi hamda Konstitutsiya va qonunning ustunligi so'zsiz tan olinishi belgilandi. Jumladan, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi lozimligi hamda davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishlari shartligi mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanishi qayd etildi. Shu o'rinda, davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida prokuratura qanday o'rin tutadi va prokuror nazoratining ahamiyati nimalardan iborat bo'ladi degan savollar tug'ilishi tabiiydir. Ma'lumki, XVIII asr o'rtalarida Sharl Lui Monteskye va boshqa mutafakkirlarning ta'limotiga asoslangan va keyinchalik Yevropada yuzaga kelgan parlament respublikalarining davlat qurilishida mujassamlashgan klassik sxema asosida hokimiyatlar bo'linishi bugungi kun davlatlaridagi tegishli organlarning funksiyalari va o'zaro munosabatlari hamda aloqadorligini huquqiy-siyosiy jihatdan belgilanishiga zamin yaratib berdi. Shu asosda, parlament – qonun chiqaruvchi hokimiyatni ifoda etsa, hukumat qonunlar ijrosi va davlat hokimiyatini ta'minlaydi, sud – nizolarni huquqiy hal qilish va qonunni qo'llashni amalga oshiradi, prokuratura – qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga

oshirish orqali inson huquq va erkinliklari, huquqiy tartibot va qonuniylikni ta'minlaydi. Binobarin, davlat institutlari tizimida prokuratura organlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Prokuratura tarixi hamda xorij va mamlakatimizning huquqiy tizimiga ko'ra, prokuratura qonun ijrosini nazoratni amalga oshiruvchi, jinoyat sodir etgan shaxslarni ta'qib qiluvchi, sudda ishtirok etuvchi hamda huquqni himoya qilish funksiyalarini bajaruvchi maxsus vakolatli organdir. Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi davlat nomidan Konstitutsiyaga rioya etilishi hamda O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat olib boruvchi davlatning ko'p funksiyali organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimida prokuratura organlarining tutgan o'рни va ahamiyatini belgilashga oid bir necha asosiy yo'nalishlar mavjud. Birinchidan, prokuratura davlat nazorati organidir. Qonunlarning bajarilishi ustidan prokuror nazorati o'ziga xos faoliyat hisoblanadi. Prokuraturaning mavjudligi bu – qonunchilik ehtiyojidir. O'zbekiston Respublikasi hududida Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat bu mustaqil faoliyat bo'lib, faqatgina prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur faoliyatni prokuratura organlaridan tashqari, boshqa hech qanday davlat va nodavlat organlari, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, uyushmalar, mansabdor shaxslar va boshqalar bajarishi mumkin emas. Prokuratura nazorati davlat hokimiyatining biron-bir tarmog'i (sud, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi)ga mansub emas, shu bilan birga, ularning ayrim xos belgilariga ham ega. Ikkinchidan, prokuratura davlat institutlari tizimida alohida o'rin tutadi. U Konstitutsiyada nazarda tutilgan hokimiyat tarmoqlari bilan funksional munosabatlarga ega. Prokuratura nazorati ularning birortasi bilan to'liq bog'liq bo'lmay, ularni muvozanatlashtirib, optimal ishlashini ta'minlaydi. Misol uchun, prokuratura O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Prezidenti oldida hisobdordir. Quyi turuvchi prokurorlar xalq deputatlari tegishli kengashlariga hisobot beradi. Ayni paytda, prokuratura deputatlarga nisbatan jinoiy ta'qibni amalga oshirish vakolatiga ega va hokazo. Uchinchidan, prokuratura va boshqa nazorat organlari nafaqat bir-biri bilan hamkorlik qilibgina qolmay, balki o'zaro o'zboshimchaliklardan tiyilishiga majbur qiladigan zarur vositalar majmuiga ega bo'lgan ikkita mustaqil tizim – nazorat va muvozanat tizimini ifodalaydi.

Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Prokuratura to'g'risida" gi Qonunda aks ettirilgan. Yangilangan tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXV bobi Prokuratura organlariga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi deb belgilab qo'yilgan. Demak, prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashganlik tizimini tashkil etadi hamda quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va Bosh prokurorga bo'ysinadi hamda hisobdor bo'ladi.

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra ular quyidagilardan iborat:

☐Birlik

Markazlashganlik

Qonuniylik

Mustaqillik

Oshkoralik

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi prinsiplarni birma-bir tahlil qilib chiqsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Prinsiplarimiz ichidan birinchi prinsipimiz bo‘lgan “birlik” prinsipiga to‘xtalsak. Shuni aytib o‘tishimiz joizki, “birlik” tamoyilining aniq huquqiy tushunchasi mavjud emas. Bu sababli bir nechta huquqshunos olimlarning mazkur prinsip haqidagi fikrlariga nazar tashlasak.

Huquqshunos olim B.Po‘latovning fikriga ko‘ra, prokuratura faoliyatining birlik tamoyili, avvalo, bu organlar oldiga qo‘yilgan vazifalarning birligi bilan belgilanadi. Qonun buzilishini aniqlash va bartaraf etish borasidagi yuqori turuvchi va quyi prokurorlarning vakolatlari bir xil.

Huquqshunos olim Z.Ibragimov ham ushbu fikrni quvvatlab, “prokuratura organlarining ish faoliyatidagi birlik tamoyili ularning yuqoridan pastgacha bir xil tartib qoidalar asosida yagona maqsadlarni ko‘zda tutgan holda faoliyat ko‘rsatishini, yagona vazifalarni amalga oshirishni hamda aynan bir xildagi qonunlarga rioya qilishini namoyon etadi” deb ta’kidlagan.

Aniqroq qilib aytganda, barcha prokurorlar yagona vazifalarni amalga oshirishi va bir xil qonunlarga rioya qilishlari lozim. Bir viloyat prokuraturasi boshqa qonunga yana, boshqa viloyat prokuraturasi boshqa bir qonunga ko‘ra ish yuritishi yoki faoliyat olib borishi mumkin emas.

Prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplarini chuqur o‘rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kvlash mumkin:

birinchidan, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida birlik prinsipiga ta’rif berilmagan. Mazkur prinsipga ham boshqa prinsiplar qatori ta’rif berilib ketilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sababi, qonun bilan tanishayotgan o‘ganuvchi boshqa moddalar bilan tanishganda ma’lum bir xulosaga kelishi memkin, ammo birlik prinsipi bilan tanishgan o‘ganuvchi u qanday prinsip ekanligi haqida ma’lum bir xulosaga kelolmaydi.

Bizningcha, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunnning 5-moddasiga birlik prinsipining ta’rifini kiritish lozim. Yokida Qirg‘iziston davlati tajribasidan foydalangan holda prinsiplarga har biriga alohida modda ishlab chiqilishi yoxud 5-moddaga prim moddalar qo‘shilishi kerak deb hisoblaymiz.

ikkinchidan, oshkoralik prinsipi hisoblanadi. O‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qonun bo‘yicha prokuratura organlari o‘z faoliyatini qonunda belgilangan tartibda oshkora amalga oshiradi deyilgan. Ammo prokuratura organlari faoliyati haqida hech qayerda ma’lumot ololmaymiz, ya’ni ular qancha ish ko‘rdi, qancha fuqarolarning shikoyatlarini o‘rganib chiqdi va ular ijobiy hal qilindimi yoki yo‘qmi kabi ma’lumotlar hech qayerda mavjud

emas. Bu bilan prokuratura organlari ommaviy-axborot vositalarida mazkur muammolarni e'lon qilish tarafdori emasmiz, balki prokuratura organlarining maxsus saytida bir oylik yoki bir yillik ko'rilgan ishlar bo'yicha statistika sifatida qancha ish hal qilingan, qancha ish ko'rmasdan qoldirilgan yoxud qancha ish kelib tushganligi kabi ma'lumotlar berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Aynan mana shu yo'l orqali aholi orasida prokuratura organlariga nisbatan ishonchni yanada kuchaytirish mumkin.

uchinchidan, ichki tashkiliy prinsiplar hisoblangan hududiylik va predmetlilik prinsiplarini ham asosiy prinsiplar qatoriga qo'shish lozim. Sababi, amaliyotda muhim hisoblangan ushbu prinsiplarni asosiy qonunga kiritib, albatta ularga ta'rif berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

to'rtinchidan, prokuratura organlari o'z faoliyatida prinsiplarga (ma'lum vaziyatlarda prinsiplarga tayanmagan holda o'z faoliyatini olib boradigan holatlar mavjud. Masalan, oshkoralik prinsipi) tayangan holda o'z faoliyatini olib borishi lozim. (Tojikiston davlati tajribasiga ko'ra prinsiplarning moddalari asosida alohida alohida moddalar ishlab chiqish)

beshinchidan, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga o'zgartirish kiritish lozim. Sababi, mazkur moddada tafovut mavjud, ya'ni birlik prinsipiga ta'rif berilmagan. (Qirg'iziston va Gruziya davlat tajribasi asosida)

oltinchidan, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga prim modda sifatida hududiylik va predmetlilik prinsiplarini kiritish lozim.

Xulosa qiladigan bo'lsak, hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni samarali ta'minlashdagi prokuraturaning o'rnini faqatgina yangi huquqiy me'yorlarni yaratish bilangina saqlab bo'lmaydi, balki bu masalaga mamlakatimizda vujudga kelgan hozirgi siyosiy-huquqiy ustqurma mohiyatidan kelib chiqib yondashish to'g'ri bo'ladi, deb hisoblaymiz. Prokuratura barcha hokimiyat tarmoqlari tomonidan qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirib, ular o'rtasida o'zaro muvozanat va cheklov rolini samarali o'tashi davlat va jamiyat uchun samarali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992 (2023-yil tahririda). 11, 143, 100-moddalar. — <https://lex.uz/docs/35869>
2. "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 29.08.2001, 269-II-son. 3, 4, 14, 15, 16, 31-moddalar. — <https://lex.uz/docs/41449>
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, 22.09.1994. 38-modda. <https://lex.uz/docs/111048>
4. Alekseyev S.S. Teoriya gosudarstva i prava. — Moskva: Norma, 2010.
5. Skuratov Yu.I. Rossiyskaya prokuratura: problemi i perspektivi. — Moskva, 2018.
6. Zipf H. Deutsches Strafprozessrecht. — Berlin: Springer, 2015.
7. Pradel J. Droit pénal comparé. — Paris: Dalloz, 2016.
8. Venetsiya Komissiyasi. "Prokuratura mustaqilligi to'g'risida" Xulosa, CDL-AD(2010)040. — <https://www.venice.coe.int>

9. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi rasmiy sayti. — <https://prokuratura.uz>
10. Lex.uz — Qonun hujjatlari milliy bazasi. — <https://lex.uz>
11. Norbo'tayev M. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. — Toshkent: TDYU, 2019.